ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 4

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 4

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 26.04.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 26.04.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 26.04.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA,
TO‘YCHIYEVA ZULEYXA HAMROQO‘LOVNA
Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”
asarida so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash 7

BERDIYEV XUSAN XOLNAZAROVICH
«Devon-u lug‘otit turk»dagi she’rlarda
hojib va radif san’atlari 13

УМУРҚУЛОВ ЗАФАР БЕКПЎЛАТОВИЧ
Қиёслаш инсон тафаккур тарзининг маҳсули 16

ESHBOYEV QAHRAMON BAKIR O‘G‘LI
So‘zlararo darajalanish o‘quv lug‘atida so‘zlarga izoh berish 20

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA
Kasallik nomlarining onomasiologik, semantik ifodasi 24

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari
(O‘zbek xalq ertaklarida mavjud antroponimlar misolida) 28

ДЖАББАРОВА ШОИРА БАЛТАЕВНА
Медиа тилида муқобилсиз лексика таснифлари: назарий ёндашув 33

KULTAYEVA FAZILAT BAXTIYAROVNA
Ergonimlarning morfologik derivatsiyasi xususida 36

HAYDAROVA KAMOLA DAVRANOVNA
O‘zbek, rus va ingliz tillarida meva nomlarining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili 39

TERMIROVA KAMOLA
Ziravor atamalar va ularning lug‘atlarda ifodalanishi 43

TURDIMURODOV SIROJIDIN ESHQOBILOVICH,
JABBOROVA SEVARA BAXTIYOR QIZI
Badiiy matnda evfemik birliklar tahlili 50

SOATOVA YULDUZ
Bobur she’riyatida ayol qaddi-qomatini ifoda etuvchi lingvistik vositalar 53

ТОЛИЕВА ШОИРА ИЛХОМОВНА
Лингвистик экспертиза методларининг тамойиллари 57

AVRIDDINOV JOBIR MUSULMON O‘G‘LI
Sharq olimlarning «Zufongo‘yo va Jahonpo‘yo» lug‘atida ilmiy qarashlari 59

ДАВЛЯТОВА ЭЛЬВИРА МУРАДОВНА
Парадигматические свойства иноязычных лексических единиц
в русском и узбекском языках (на материале интернет медиа) 61

МУНДАРИЖА

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Концепт «богатство» во фразеологизмах
и паремиях узбекского и русского языков 64

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Эволюция лексических единиц обозначающих мужчин и женщин 67

QULMAMATOVA MUATTAR OTABEK QIZI
Ingliz va o‘zbek maqollarida “boylik” konseptining chog‘ishtirma tadqiqi 70

FARZANA NABI,
ABDULLA XUDAYQULOV ESHQUVVATOVICH
Official documents in dari language, its translation challenges 73

ЖАББАРОВА НАРГИЗА ИСЛАМЖАНОВНА,
РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Влияние гендерной лексики на сознание и поведение людей 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

ARSLONOV ABDIMUROD KARAMATOVICH
“Qissasi Rabg‘uziy”da xalq og‘zaki ijodi syujetlari va motivlari 80

КАЗАКОВА ГУЛАСАЛ КУРАЛОВНА
Эссе жанрида шахс концепциясининг бадиий-публицистик талқини 82

LOLAYEV SHUXRAT ALIQOBIL O‘G‘LI
Turkistonda “Usuli jadid” maktablarining shakllanishi va ahamiyati 84

USMONOVA MOHIDIL LAZIZ QIZI
Ravnaq g‘azallari tabdilidagi matniy tafovutlar 87

TA’LIM

ABDUQAYUMOVA NARGIZA RAIMOVNA
Bo‘lajak rus-tili o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga
tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish metodikasi 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MAHMUD KOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARIDA SO'ZLARNI KO'CHMA MA'NODA QO'LLASH

Yerjanova Saule Baymurzayevna,
Al-Forobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti, filologiya fanlari doktori

To'ychiyeva Zuleyxa Hamroqo'lovna,
Guliston davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Tilimizdagi so'zlarning juda katta qismi ko'p ma'nolidir, chunki kishilar o'zining kundalik hayotida yangi paydo bo'lgan tushunchalarning har biri uchun alohida-alohida so'zlar qo'llayveradigan bo'lsa, so'zlarning soni o'ta ko'payib ketib, ularni xotirada saqlash mumkin bo'lmay qolardi. Natijada tildan foydalanish ham qiyinlashib, u sekin-asta yaroqsiz holga kelib qolgan bo'lar edi.

Shuning uchun ham har qaysi tilda sanoqli til birliklarining turli xil kombinatsiyalardan cheksiz tushuncha va fikrlarni ifodalashga harakat qilinadi. Ana shunday harakat tufayli tilda ilgari mavjud bo'lgan so'zlarga yangi-yangi ma'nolar yuklanadi. Natijada, ko'p ma'noli so'zlar maydonga keladi. Masalan, "*ko'z*" so'zi dastlab faqat "tirik organizmning qavariq shaklga ega bo'lgan ko'rish a'zosi" ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik "qabariqlik" ma'nosini faollashtirish asosida "daraxtning ko'zi", "yorug'lik bilan ta'minlash" ma'nosini faollashtirish orgali "derazaning ko'zi" ma'nolarida qo'llanila boshlandi.

Bir so'z bilan bir necha narsa hodisalar atalar ekan, demak nom ko'chadi. Binobarin tilda ko'p ma'nolilik – polisemiya hodisasi yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, so'zlarda hosila ma'noning yuzaga kelishi ularning polisemiyasi uchun sabab bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, ko'p ma'no ifodalash so'zning o'z ma'nosi bilan bir qatorda ko'chma yoki majoziy ma'nolarda qo'llash asosida yuzaga keladi. Bunda, albatta, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik hodisalarining hammasi o'z ahamiyatiga ega.

Bir so'zning yangi bir narsa, belgi, harakat kabilarning atamasiga aylanishining, ya'ni nom ko'chish natijasida yangi ma'no hosil bo'lishining ma'lum asos va usullari bor.

Jahon tilshunosligida ko'chma ma'noli hosil qiluvchi so'zlarni tasniflashga doir bir qancha qarashlar mavjud. Masalan, fransuz tilshunosi J.Maruzo ko'chma ma'noli so'zlarni uch turga metafora, metonimiya, sinekdoxaga ajratadi[1]. Rus tilshunosi L.A.Buxalovskiy esa ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisani olti turga bo'lgan: metafora, vazifadoshlik, emotsionallik, metonimiya, xalq etimologiyasi sifatida, aloqadorlik. L.A.Buxalovskiy sinekdoxani metonimiyaning bir ko'rinishi deb hisoblaydi[2].

Tilshunos olim M.Mirtojiyevning fikricha, "Tildagi polisemiya hodisasi juda qadimdanoq olimlar diqqatini o'ziga jalb qilib keldi. Eramizdan avval uni falsafa va uslubiyat nuqtai nazaridan o'rganishdi. Olimlarimizning fikricha bu masala bilan Xitoy va Hind olimlari, eramizning boshlarida esa yunonlar ham shug'ullanishgan ekan. So'zlarning turli ma'nolarda tovlanishi qadimgi turkiy til boyliklariga bag'ishlangan asarlarda ham o'rganilgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Alisher Navoiyning "Muhabbat-ul lug'atayn" asarlarida bunday hodisani kuzatish mumkin"[3].

So'zlarning rang-barang ma'nolarda kelishi adabiy matnlarni tahlil etish jarayonida aniqlanadi. So'zning o'z ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llanilishi tilshunoslik va adabiyotshunoslikda trop atamasi bilan yuritiladi. Badiiy tildagi bunday hodisani R.Qo'ng'urov shunday izohlaydi. "Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarni shu maqsadda, umuman ko'chma ma'noda ishlatishga troplar deyiladi"[4].

"Devonu lug'otit turk" nafaqat qiyosiy – tarixiy tilshunoslik maktabiga asos solgan asar, balki turkologiyaning dastlabki (to'ng'ich) ilmiy fonetikasi, ilmiy leksikologiyasi, ilmiy etimologiyasi, ilmiy leksikografiyasi, ilmiy uslubiyati, ilmiy dialektologiyasi, etnografiyasi va ilmiy morfologiyasidir. Bu asar turkiy

[1] Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. – М.: УРСС, 2004. – С. 23

[2] Бухаловский Л.А. Введение в языкознание. – М.: ВУчпедгиз, 1954. – С. 76.

[3] Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan. – B. 69.

[4] Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 54.

xalqlar tarixini, urf-odatlarini, xususan, bugungi turkiy filologiyani mukammal qilib yaratishda bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi.

Asarda olim leksikologiyaning obyekti bo‘lgan ma’noning ko‘chishi, torayishi va kengayishi, zid ma’noli so‘zlar, shakldosh, ma’nodosh so‘zlar kabi masalalar bo‘yicha ma’lumot beradi. U ma’noning torayishi haqida fikr yuritar ekan, ***saban*** so‘zi ilgari qo‘sh va omochlarning hammasi ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, so‘ng faqat omochga xoslanganligini ko‘rsatadi. Metonimiya yo‘li bilan ma’no ko‘chishiga ham misollar keltirib, o‘g‘uzlar qiy – go‘ngni og‘il deyishlarini, bosh so‘zi o‘rnida soch so‘zini ishlatishlarini ta’kidlaydi. Shuningdek, so‘zlarningo‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishi haqida ham misollar beradi. Masalan, **tug‘moq** so‘zi ilgari faqat odamga nisbatan ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik hayvonlarga nisbatan qo‘llana boshlanganligini aytadi. (DLT, 2 tom, 20-b).

Biror narsa, belgi va harakatning nomini o‘zaro o‘xshashligi bo‘lgan boshqa narsa, belgi va harakatga ko‘chish metafora usuli bilan yangi ma’no hosil qilish deyiladi. “Devon”dagi so‘z ma’nolarini kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, bu usulda yangi ma’no hosil qilgan so‘zlar talaygina.

Masalan, so‘zlar shakliy o‘xshashlik asosida ham yangi ma’noga ko‘chishi mumkin.

Og‘ïz (og‘uz) so‘zi. Bu so‘z XI asrdayoq o‘zining ko‘chma ma’nosiga ega bo‘lgan. Ya’ni “Devon”-da bu so‘zning bosh ma’nosi bilan birgalikda hosila ma’nosi ham keltirilgan. Shunisi e’tiborliki, Mahmud Koshg‘ariy polisemantik so‘zning har bir ma’nosiga alohida so‘z sifatida e’tibor beradi:

1. **Og‘ïz** – odam va hayvonlar og‘zi. **Og‘ïz jesa ko‘z yjazur** – og‘iz yesa, ko‘z uyalur.

2. **Og‘ïz** – ariq og‘zi, charm idish yoki qovg‘aning og‘zi, xum og‘zi, quduq og‘zi.

Misollarda ko‘rinib turibdiki, birinchi ma’no ikkinchi ma’noga asos bo‘lib kelmoqda. Ya’ni metaforik usulda ma’no ko‘chdi.

Shunday so‘zlar borki, jamiyatning rivojlanishi davomida ko‘chma ma’no hosil qilishi mumkin. XI asrda tish so‘zi faqat odam va hayvonlar tishigagina qo‘llangan bo‘lsa, so‘ngra fan-texnikaning, jamiyatning rivojlanishi natijasida arra, tig‘ shaklidagi har qanbay asbobga ham qo‘llana boshladi. Shuningdek burun so‘zining ham asosiy ma’nosi odam yuzida va hayvon basharasida ma’lum hid bilish, hidlash a’zosidan iboratdir. U qachondir har narsaning ko‘tarilib chiqqan qismi tumshug‘iga ham qo‘llana boshlagan.

Yuz so‘zi XI asr tilida ikki ma’noda:

a) odam basharasi, b) ma’lum son ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa ham, u so‘ngra har narsaning ko‘zga ko‘rinuvchi ustki qismiga ham qo‘llana boshlagan. Hovli yuzi, suv yuzi kabi. ***Yuz*** so‘zining narsaning ustki qismi ma’nosi – ko‘chma ma’no, ikki predmetning tashqi ko‘rinishidagi o‘xshashlik asosida yuzaga keladi. Demak, bu xususiyat, ya’ni so‘zlarning shakliy o‘xshashlik asosida yangi ma’no ko‘chishi XI asr tilida mavjud hodisadir.

Alïn (olin) so‘zi. Bu so‘z ham o‘z davrida ko‘chma ma’nosiga ega edi:

1) **al ïn** – peshona, manglay

2) **al ïn** – tog‘ning yumaloq baland tomoni.

O‘z – o‘zidan misoldan ko‘rinib turibdiki, bu so‘zning ko‘chma ma’nosi shakliy o‘xshashlik asosida vujudga kelgan. Tog‘ning yuqori qismi yumaloqligi va yuqorida joylashishi peshonaga o‘xshaganligi sababli shu ma’no yuzaga kelgan.

Qurshag‘ (qurshog‘) leksemasi ikki ma’noni:

1 – belbog‘, 2 – o‘tov ustini bog‘lanadigan jiyak, o‘tov jiyagi.

Bu ikki ma’no ham o‘zaro bir xil, ya’ni bog‘lash funksiyasini bajaradi. Demak, so‘zlarda ma’no ko‘chish faqat bir tomonlama emas, balki ba’zasida har tomonlama o‘xshashlik alomatlari seziladi.

Ejaku so‘zi. Bu so‘zni olim quyidagicha sharhlaydi:

“**ejaku**–yon taraf. Chodir yonlariga ham **ejaku** deyiladi. Tog‘ning o‘rtasidagi yerga **ejaku jer** deyiladi” [DLT, 1 t, 341-b].

Bu so‘zda ma’no avval tog‘ning o‘rta qismiga nisbatan qo‘llanilgan. Keyinchalik shu ma’noga chodirning o‘rta qismiga ko‘chirildi.

Bag‘ïr so‘zi XI asrda ikki ma’noda: a) jigar, b) yoyning o‘rta yeriga nisbatan qo‘llangan. “Devon”-da aytilishicha: “hech kimga bo‘yin egmovchi kishini **beguk bag‘ïrlïk** deb yurgizganlar. Ya’ni bu degani bag‘ri butun deganidir. Shundan olinib yoyning o‘rta *yoy bag‘ri* deyiladi”.

Demak, izohdan anglashimiz mumkinki, *bag‘ir* so‘zi makon o‘xshashligi asosida yangi ma’no hosil qilgan. Ya’ni jigar inson tanasining o‘rta qismida, ichida joylashganligi sababli, yoyning ham o‘rta qismiga ishora qilingan, deyishimiz mumkin. Shuni ham aytib o‘tishimiz joizki, agar hozirgi xalq tilimizga e’tibor beradigan bo‘lsak, *bag‘rini yerga berib yotibdi* (ko‘krakni yerga berib yotish) *jigardan urdi* (ko‘ngil yurak) kabi iboralarning qo‘llanilishidan anglashimiz mumkinki, bu so‘z nafaqat jigar ma’nosini, balki “ko‘ks, yurak” ma’nolarini ham beradi. Shularni hisobga olgan holda bizga ushbu so‘z haqidagi yuqoridagi fikrlarni aytishga imkon beradi.

Uch so‘zi “Devon”da bir qancha ma’nolarni ifodalagan: birinchi ma’nosi – narsaning uchi, ***bumaq uchi, shox uchi***; ikkinchi ma’nosi – *uch el* birikmasidagi chegara, ***el,*** mamlakat chegarasidagi viloyat; uchinchisi – uch biror narsaning tugashi, bitishi kabi ma’nolarni ifodalaydi. Hozirgi o‘zbek tilimizda birinchi ma’noni faol, hatto kengaygan: *gapning uchini topgi, kalavaning uchini yo‘qotgi* kabi iboralar tarkibida u

boshlanish, muddao ma'nolarini beradi.

So'zlar rang o'xshashligi asosida ham yangi ma'noga ko'chadi.

Klassik adabiyotda so'zni rang o'xshashligi asosida ko'chma ma'noda qo'llash, so'z o'yinlari keng qo'llanishi hammaga ma'lum. Masalan, oqlikdan kinoya o'rnida kofur so'zini qo'llash, qora ma'nosida ipor so'zini qo'llash A.Navoiy asarlarida juda keng uchraydi. Bu so'zlarning rangdagi o'xshashlik asosida yangi ma'noga ko'chishidir. Bu xususiyat XI asr tilida ham uchraydi. "Qutadg'u bilik" da Yusuf Xos Hojib yoshlik davri o'tib qora sochlari oqarganini quyidagicha izohlagan:

Ipor ketti kofur oshundi boshim...

(Chiroyli qora sochim oqqa aylandi)

Hatto mumtoz adabiyotda yil fasllarining har birini biror rang bilan ifodalash qoida holiga kirgan edi. Masalan, kuzni sariq, qishni oq, bahorni qizil, yozni ko'k ranglar bilan ifodalagan. Jonli tilda qizil narsani anor bilan, sariqni za'far bilan, oqni qor bilan ifodalash ana shu xususiyatning boshqa bir ko'rinishidir. Ayniqsa, A.Navoiy asarlarida bunga misollar ko'p.

Uy oltun, farshi oltun, tomi oltun

May oltun, zarfi oltun, jomi oltun.

A.Navoiy bu misralarda ***oltun*** so'zini sarig' ma'nosida qo'llagan. Demak, bu hodisa asosida hosila ma'noning kelib chiqishi tarixiy holat. Masalan: Mahmud Koshg'ariyning ma'lumotiga ko'ra, XI asrda ***chipqan*** (chipqon) so'zi (DLT, 1 t, 451) jilon jiyda ma'nosini berar edi. Uning ko'chma ma'nosi, ya'ni chipqon yarasi qizillikda jilon jiydaga o'xshashligi uchun uni shu so'z bilan atagan. Demak, so'zning boy ma'nosi – jilon jiyda. Uning rangi va shaklini o'xshatgan holda yaraga nisbatan qo'llanildi. Biz bu so'zning ma'no taraqqiyotiga e'tibor bersak, davrlari o'tishi bilan so'zning bosh ma'nosi – jilon jiydani ifodalovchi chipqon so'zi iste'moldan chiqqanligini va hozirgi o'zbek adabiy tilimizda esa faqatgina yaraning nomini ifodalovchi chipqon so'zi mustaqillashib, bosh ma'noga aylanganligining guvohi bo'lamiz.

Opmandi (o'rtandi) so'zi. Bu so'z ham yangi ma'noga asos qilib olinganda, bizningcha, rang o'xshashligi asosida ma'no ko'chirilgan. XI asrda bu so'z, ya'ni o'rtandi fe'li "kuydi", "yondi" ma'nolarida ishlatilgan. Shuningdek, tadqiqotchining ma'lutotiga ko'ra, "kun botgandan so'ng bulut qizarsa, **bulut opmandi**" deyilgan. Va maqol orqali fikrini isbot qilgan:

Tunla bulim opmansa,

Ewlyk ypi kelgipmishcha bolur.

Tanga bulim opmansa,

Ewga jag'i kirmishcha bolur.

Kechqurun bulut qizarsa, xotini o'g'il tuqqandek, ertalab bulut qizarsa, dushman uyga kirgandek bo'ladi. [DLT, 1 t. 252-b].

Misoldan ko'rinib turibdiki, olov yonganda qizaradi, demak bulutning qizarishiga ham shu so'zni ko'chirdi. Aslida o'rtandi fe'lining o'zagi "o'rt", ya'ni olov ma'nosini berar edi. Go'yo bu o'rindagi ma'no ko'chirilishi, ya'ni so'zning ma'nosidan holat bilan bog'liqdek tuyuladi. Biroq, holatga nisbatan kelib chiqib rang ma'nosi ko'chganligi ustunroq.

A:q – oq so'zi. Bu so'zni olim quyidagicha izohlagan:

A:q – oq. Har narsaning oqi (o'g'uzcha). Turkiy qabilalar chipor otga **oq ot** deydilar.

A:q. **A:q saqal er** – oq soqol, soch – soqoli oqargan kishi (o'g'uzcha).

Demak, berilgan birikmalardan aniq bo'ladiki, so'zning keyingi ma'nosi belgining ko'chishi orqali paydo bo'ldi. Bu so'zning keyingi taraqqiyotiga oqsoqol so'zining ma'nosi kengaydi. Endi u faqat soqoli oqargan kishi ma'nosida emas, balki ko'pni ko'rgan, hayot tajribasiga ega, yaxshi – yomonning farqiga boruvchi shaxs, hamda boshliq ma'nosini ifodalovchi so'zga aylandi. Hozirgi nuqtai – nazardan bu so'zning keyingi ma'nosiga e'tibor bersak, soqol orqali shaxsga ishora qilinayapti. Demak, sinekdoxa hodisasi deyish ham mumkin.

Bir narsaga (ba'zan harakatga) xos belgining nomi boshqa bir narsadagi belgiga ko'chiriladi.

Masalan: XI asrda **qirt** so'zi bir necha ma'nolarni anglatgan va "Devon"da quyidagicha izohlagan:

"**Qirt: qirm om -** kalta o't. Shuningdek, kalta sochga ham **qirm soch**, baxil va xulqsiz kishiga ***qirm kishi*** deyiladi" [DLT. 1 t. 328-b].

Bu so'z dastlab sochga yoki o'tga nisbatan qo'llangan bo'lishi mumkin. Chunki har ikkala misolda ham shakliy o'xshashlik belgilari mavjud. Ya'ni fahm-farosati kalta va baxil kishilarga nisbatan ishlatgan. Bu yerda o'lchov belgisi asosida ma'no ko'chgan deyish ham uncha to'g'ri kelmaydi. Sababi bu ma'no ma'lum darajada kishilarning xususiyatini ifodalash uchun qo'llangan. Mantiqan olib qaralganda bosh ma'no bilan hosila ma'no o'rtasida ichki o'zaro bog'liqlik bor. Bu metanomiya asosida vujudga kelgan deyishimiz ham mumkin. Hozirda jonli so'zlashuvda, ya'ni dialektda shu o'zakdan yasalgan "qirtishladi" fe'li qo'llaniladi. Demak, bu so'zning ma'nosi umumxalq tilida ma'lum darajada saqlanib qolgan.

Erkin (erkin**)** so'zi. Bu so'z "to'planganlik" ma'nosini ifodalash uchun qo'llaniladi. Mahmud Koshg'ariyning ma'lumotiga ko'ra har bir to'plangan narsaga ham erkin so'z qo'llaniladi. Bu so'zning ma'nolarini quyidagicha beradi:

Erkin – **erkin suw –** suv to'plami. Har bir to'plangan narsaga ham erkin so'zi qo'llaniladi.

Qorluqning kattalariga **kol erkin** deyishi ham shundandir. "Bu limmo – lim ko'l kabi aqli ko'p, aqli

to‘lgan, aqli to‘plangan odamdir” [DLT 1 t. 132-b]. Bu izohdan ko‘rinib turibdiki, erkin so‘zining har ikkala ma’nosi ham bir – biriga bog‘langan.

Undan tashqari “to‘planganlik” ma’nosini ifodalash uchun bu so‘zning boshqa shakli, ya’ni **merkin** (terkin) so‘zi ham qo‘llaniladi. Bu leksema ham yuqoridagi ma’nolarni ifodalaydi. Erkin so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda “har qanday to‘siq, g‘ov, mone’likdan hosil bo‘lgan, bemalol” ma’nosini ifodalab keladi. “Devon”dagi singari “to‘planganlik” semasini saqlab qolmagan. Aksincha yangi ma’noni o‘ziga yuklagan.

Olimning ta’kidlashicha hamma vaqt askarni (su) suv (suw) ga qiyoslab o‘xshatishgan. Bir qancha misollarda suvga daxldor holatlar, belgilar askarlarga nisbatan ham qo‘llanilgan. Masalan: **Aqin** (oqin) so‘zi. Bu so‘zning asl ma’noi “sel” bo‘lib, suvning to‘satdan yopirilib kelishiga nisbatan qo‘llanadi. “Devon”da to‘satdan kechasi kelgan askarlarga nisbatan ham “**aqinchil keldi**” deyilishi haqida ma’lumot uchraydi. [DLT 1 t. 106-b.]

Suvga xos bo‘lgan holatni, ya’ni “to‘satdan, yopirilib kelishi”ni askarlarga o‘xshatgan holda qo‘llagan. Yoki xuddi shu holatga yana bir misol:

1) **merkin suw –** turib qolgan, balchiqli suv.

2) **merkin so‘ –** to‘plangan askar. [DLT 1 t. 132-b]

Har ikkala misolda ham ko‘rinib turibdiki, ikkisida ham to‘planganlik belgisi mavjud. Birinchi misolda har tomondan yig‘ilib qolgan, to‘plangan suvga ishora qilinsa, xuddi shu holatni askarlarga nisbatan ham qo‘llagan. Undan tashqari “**bukd**i” (bukdi) fe’li ham “to‘pladi, yig‘di” ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunda ham suv bilan askarlar o‘zaro o‘xshatiladi Masalan:

1) **ol suwug‘ bukdi –** u suvni bo‘g‘ib, to‘xtatib qo‘ydi, to‘pladi.

2) **Beg susin bukdi –** xon askarini yig‘di**.** [DLT II t. 27-b.]

Har ikkalasida ham harakat natijasi o‘xshashdir. Yoki suv oqsa – **suw aqmi,** askar yursa - **so‘ aqmi** deyiladi. Askarlarning mo‘lligi, miqdori suv kabi serob. Demak, misollardan ko‘rinib turibdiki, hamma vaqt ko‘p askar suvga o‘xshatilgan. Suvga xos bo‘lgan belgi, harakat, holatning barchasi askarlarga nisbatan ham qo‘llanilgan.

Et so‘zi. Bu so‘zning ma’nosi haqida olim ma’lumot berganda, agar so‘z ***I*** (alif) bilan berilib, yumshoq et talaffuz qilinsa, et – go‘sht ma’nosini berishligini ta’kidlaydi. **Em jer** deyilganda esa yumshoq yer, yumshoq tuproq ma’nolari ifodalanadi. Ma’lum bo‘ladiki, et – go‘sht so‘zida yumshoqlikka asoslangan ma’no ko‘chishi sodir bo‘ladi va shu umumiy ma’no ostida birlashadi. *E* unlisining qattiq yoki yumshoq talaffuz etilishi esa ma’noni farqlaydi.

Qurug‘ so‘zi XI asrda qanday ma’nolarda qo‘llanilgan bo‘lsa, shu vaqtga qadar o‘sha ma’nolarini to‘laligicha saqlab qolgan va hozirda esa ma’nosi kengaygan deyish mumkin. E’tibor qilaylik. “Devon”-da quyidagicha izohlangan:

1) Qurug‘ – **qurug‘ ew –** odamlardan, shuningdek narsalardan xoli uy, bo‘sh uy.

2) **Qurug‘ ulma** – qurug‘ ko‘zacha. Ichidagi narsasidan bo‘shagan har bir idishga ham qurug‘ deyiladi.

3) **Quru**g‘ – quruq. Ho‘lning qarshisi. Avvalgi ma’no shundan kelib chiqqan.

Misollardan bilib olishimiz mumkinki, bosh ma’no uchinchi misolda ifodalangan. Bosh ma’no aslida “ho‘lning qarshisi”. Buni olimning o‘zi e’tirof etadi. Bosh ma’no asosida ikkinchi ma’no qurug‘ ko‘zacha birikmasidagi, kelib chiqqan deb olishmiz mumkin. Chunki, suv ko‘zada turganda ho‘l bo‘ladi, vaholanki suv yo‘q ekan o‘z – o‘zidan ma’lumki ko‘zacha quruq bo‘ladi. Ikkinchi ma’no orqali esa birinchi misoldagi bo‘sh uy birikmasidagi ma’no urchib chiqqan deyishimiz mumkin. Demak, bosh ma’no – ho‘lning qarshisi, asos ma’no quruq idish ma’nosini ifodalaydi va asos ma’no orqali quruq uy birikmasidagi ma’no paydo bo‘lgan. Har uchala ma’no ham o‘zaro bir – biriga bog‘langan.

So‘zlar ma’nosi til tabiatiga va xalqning aqliga bog‘liq, desak yanglishmaymiz. Sababi so‘z ma’nosi shu xalqlarning dunyoqarashi, ijtimoiy mavqei asosida ham kelib chiqishi mumkin.

Masalan, “Devon”dagi ***bosh*** (bo‘sh) so‘zining ma’nolariga e’tibor qaraytaylik. Bu so‘z quyidagicha berilgan:

Bosh – **bosh jïlqï** – bo‘sh, erkin yilqi.

Shundan olinib: - **ol ishlär bosh** – u xotin ozod, u xotinni ozod qildi, tashladi, unutdi deydilar.

Ol qul bosh qilgi – u qulni ozod qildi. Umuman “ozodlik” so‘zi “bo‘sh” so‘zi bilan ifoda etiladi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, ya’ni mantiqan olib qaralganda har bir ma’no o‘zaro bir – biriga uzviy bog‘liq. Birinchi misolni biz bosh ma’no deb olib qarasak, dastlab bu so‘z yilqilarga nisbatan qo‘llanilgan. Yilqilarni erkin yurishiga ishora qilingan. Endi bevosita ikkinchi misoldagi ma’noga e’tibor bersak, bu so‘z dastlabki ma’nosidan kelib chiqqan holda paydo bo‘lgan deyishimiz mumkin. Shuni aytib o‘tish lozimki, ayolning yoki xotinning holati yo bo‘lmasa harakati, cheklanganligidan dalolat beradi. Erdan ajralgan keyingi holati “erkin” yurgan yilqilar holatiga ishora qilingan. Shuningdek qulning ixtiyori dastlab uning egasida bo‘ladi, o‘z – o‘zidan erkin harakat qilishdan mahrum, ozod qilingach uning ham holati xuddi bo‘sh, ozod yilqi kabi erkin yurish imkoniyatiga ega.

O‘z-o‘zidan Mahmud Koshg‘ariy xuddi shu holatlarga nisbat bergani aniq bo‘ladi.

Bir narsaga xos harakatning nomi boshqa bir narsa harakatiga ko‘chiriladi. Bunda asosan harakat o‘xshatiladi.

Masalan: Ekdi (ekgi) fe’li. Bu so‘z “Devon”da quyidagicha ma’nolarni ifodalagan.

“**Ol tarig‘ ekgi** – u don ekdi. Shuningdek, har bir narsa ustiga sepilgan va qo‘yilgan dori uchun ham bu so‘z qo‘llanadi” [1. 108]. Ko‘rinib turibdiki, har ikkala ma’no ham bir – biriga o‘zaro harakat orqali o‘xshash, ya’ni birinchi misolda donni yerga sepish ma’nosida qo‘llansa, ikkinchi misolda esa dorini yaraning yoki biror jarohatning ustiga sepish yoki qo‘yish ma’nosini ifodalagan. Har ikkalasi ham “bir narsaning ustiga sepish” ma’nosi ostida birlashadi. Bu so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda ekinga nisbatan faol qo‘llanadi. Lekin “dori surish” ma’nosini ifodalash uchun bu so‘zni ishlatmaymiz.

Erildi (erilgi) so‘zi**.** Bu so‘z XI asrda quyidagicha ma’noni bergan:

1. Devor raxnalandi, tepa qismi nuradi – **mam erilgi**.

2**.** To‘lin oyning oy oxiriga qadar asta – sekinlik bilan kamaya borishiga nisbatan – **aj erilgï**. [1, 268]

Demak, misollar orqali anglashimiz mumkinki, bu so‘z har ikki ma’noda ham harakatning bajarilishi jihatidan o‘xshash. Ya’ni birinchi misolda devorning asta – sekinlik bilan kichiklashib yoki kamayib borishini ifodalasa, ikkinchi misolda oyning asta – sekinlik bilan kamaya borishiga nisbatan ishlatilgan. Har ikki misolda ham “asta – sekinlik bilan kamayib borish” ma’nosi bor. Shuningdek, ilgari devorning nurashi kabi ma’noda ishlatilgan bu so‘z hozir asosan qor, muz, tuz, qand, yog‘ kabi narsalarning erishini ifodalash uchun ishlatiladi. Lekin oyga nisbatan, ya’ni uning kamayib borishiga bu so‘zni qo‘llamaymiz.

Urildi (ypylgï) fe’li. Bu so‘zning XI asrdagi ma’nolari quyidagilardir.

1. Urildi – **ep ypylgï** – odam urildi.

2. Yozildi – **mergu urulgï –** dasturxon yozildi.

3. Chalindi – **myg‘ ypylgï –** navbat dovili – nog‘orasi chalindi.

Birinchi ma’noga, misollardan ko‘rinib turibdiki, ikkinchi va uchinchi ma’nolar “to‘qnashganlik” harakati bilan o‘xshash. Birinchi misolda odamning biror bir bilan to‘qnashganligini ma’nosini ifodalasa, ikkinchi ma’noda yer bilan dasturxonning to‘qnashganligi, uchinchi ma’noda esa, ikki narsaning, ya’ni tug‘ bilan nog‘oraning to‘qnashganligini ifodalash uchun qo‘llanilayapti.

Bevosita ikkinchi va uchinchi ma’nolar birinchi ma’noga o‘zaro aloqador ya’ni harakatning o‘xshashligi asosida metafora usulida nom ko‘chdi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda ikkinchi ma’noni ifodalash uchun dasturxonga nisbatan uruldi so‘zini ishlatmaymiz.

Chaqdï (**choqdi**) so‘zi. Bu so‘z “Devon”da quyidagicha izohlangan:

“***Chaqdï –*** chaqdi, eshittirdi. *Ol sözÿg anïn quloqqa chaqdï* – u so‘zni uning qulog‘iga eshittirdi. Ol ïkkï kïshï ara chaqgï – u ikki kishining orasini buzdi. Ol chaqmoq chaqdï – u chaqmoq chaqdi. Chaqmoq so‘zi ham masdar, ham ismdir” (II, 24).

Chaqmoq so‘zining dastlabki ma’nosi chaqmoq-toshni urishtirish edi. Bunda ham birovni – birovga chaqishi ma’nosi bor. Birinchisida predmetni bir-biriga ishqash bo‘lsa, ikkinchisida, birovning so‘zini birovga yetkazish ma’nosidadir. Ammo u davrda choq so‘zi nish urmoq ma’nosida qo‘llanmagan. Bu hol texnik taraqqiyoti talabi asosida yuzaga kelgan. Hozirgi o‘zbek tilida chaqmoq so‘zining eng faol ma’nosi zaharli hashoratning chaqishidir. Shuni ham aytib o‘tish kerak-ki, XI asrda zaharli hashoratlarni chaqishini ***tikdi*** so‘zi orqali ifodalagan. Bu so‘zning ma’nolariga e’tibor beraylik:

1) **mikdi** – tikdi. **Er mon mikgi** – er to‘n tikdi.

2) chaqdi. **Amig‘ jilan mikgi** – otni ilon chaqdi.

3) o‘tqazdi. **Er jig‘ach mikgi –** er yog‘och tikdi**,** Er daraht o‘tqazdi (II, 28).

Agar bu ma’nolarga diqqat bilan nazar solsak, ular o‘zaro “nish urish, sanchish” ma’nosi ostida birlashadi.

So‘nggi davrlarda tikmoq, yolg‘iz kiyimga nisbatan emas, balki jonlilarga nisbatan ham qo‘llangan.

Ma’no jihatdan ham bu so‘zga yaqin bo‘lgan suqmoq fe’lini ham ko‘p ma’noli ekanligini olim o‘z asarida sharhlaydi: “*Suqgum* – kiritdim. ***Men ani ewga suqgum –*** men uni va boshqani uyga kiritdim: Sopni boltaga o‘rnatish kabi bir narsani ikkinchisiga qattiq, mahkam joylashtirishga ham bu so‘z qo‘llanadi”. Suqmoq fe’lining ma’nolari hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda va dialektimizda saqlanib qolgan. Hozirda *suqmoq* fe’li “*uchli narsani kirgizmoq, sanchmoq, tiqmoq, biror narsani joylamoq*” ma’nolarini ifodalaydi. Juvoldiz suqmoq. *Pulni cho‘ntagiga suqgu.* Dialektimizda ba’zan ko‘chat ekishga nisbatan ham qo‘llanadi: *Ko‘chat suqmoq*.

Qurdi (qurdi) so‘zi XI asrda ikki ma’noni ifodalagan.

1) **qurg** - to‘pladi. ***Xan susin qurgi*** - shox askarlarini to‘pladi, tartibga soldi.

2) ***qurgi*** – qurdi. Xan jyvaj qurgi – Xon chodir qurdi (II, 14).

Har ikkala misolda ham o‘zaro harakat o‘xshashdir. Birinchi misolda askarlarni tartib bilan joylashtirib, bir joyga to‘plash bo‘lsa, ikkinchi misolda ham chodirlarni tartib bilan o‘rniga joylashtirish ma’nosini beradi.

Tizdi (tizdi) fe’li ham ikki:

1) Marvaridni tuzdi.

2) She’r yozdi, ma’nolarida qo‘llanilgan. (II, 16)

Har ikkala ma’no ham “tartib bilan joylashish” ma’nosi ostida birlashadi, ya’ni birinchi misolda marvaridni ipga tartib bilan, chiroyli qilib joylashtirsa, shu holat she’r yozishga nisbatan ham ko‘chgan.

Hazrat Navoiy nasrda so‘zlarning tartib bilan o‘rinli qo‘llanishini kishining tishlarini tartib bilan joylashishiga o‘xshatadi. Va so‘zlar o‘z o‘rnidagina qo‘llansa ahamiyat kasb etishini ta’kidlab, uning qiymatini nazmda yana ham bo‘rtishligini uqtiradi. Mahmud Koshg‘ariy ham so‘zning o‘rinli, tartibli qo‘llanishi she’rda alohida ekanligiga ishora qiladi.

Uchdi fe’lining “Devon”da olti xil ma’noda qo‘llanishini misollar asosida izohlab berilgan.

1. ***qush uchdi*** – qush uchdi
2. anin qumi uchdi – uning quti, baxti, davlati uchdi.
3. ***Er ammin quzi uchdi*** – odam otdan yiqilib tushdi.
4. ***Ot uchdi*** – o‘t o‘chdi.
5. ***Erning opkasi uchdi*** – odamning g‘azabi so‘ndi.
6. ***Er mini uchdi*** – odamning nafasi o‘chdi (I, 177).

Bu misollarni diqqat bilan kuzatsak hammasi o‘zaro bitta semaga bog‘lanadi. Ya’ni bu ma’nolarning barchasi “yo‘q bo‘lish, tamom bo‘lish” ma’nosi ostida birlashadi.

Birinchi misollardagi so‘zning ma’nosi bosh ma’no hisoblanib, qolgan ma’nolar bevosita shu asosda kelib chiqqan deyishimiz mumkin.

Funksional ko‘chirish ham o‘xshashlik asosida bo‘ladi. Bu jihatdan u metafora yo‘li bilan ko‘chirishga juda yaqin turadi. Bu holat XI asrda ham mavjud edi. Lekin funksional ko‘chirishga misollar ko‘p emas. Masalan, o‘sha davr tilida ***sovchi*** so‘zi ikki ma’noda qo‘llanilgan. Birinchisi payg‘ambar, ikkinchisi – sovchi, ya’ni yigitning nomidan qizga yuboriladigan shaxs ma’nosida. Hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda bu so‘zning bosh ma’nosi – payg‘ambar qo‘llanilmaydi. Demak, yuqoridagi har ikkala ma’no ham o‘zaro vazifadoshlik asosida bir-biriga o‘xshatilgan.

Davrlar o‘tishi bilan bu so‘zning ma’nosida o‘zgarish yuz beradi. Ya’ni hozirgi bosh ma’no sifatida – qiz tomonga ota-onasining roziligini olish uchun yuboriladigan vakil kishi ifodalanadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, so‘z qadimdan ko‘p ma’noli bo‘lganligi uchun, ba’zan ma’no ko‘chishi faqat bir xil xususiyatni yo belgi, yo miqdor, yo harakatlariga nisbat berib ma’no ko‘chishi hamisha ham absolyut qonun bo‘lmaganligi ko‘zga tashlanadi. Ayrim so‘zlarda ma’no ko‘chishda bir necha xususiyat hisobga olinishi mumkinga o‘xshaydi. Albatta, bunda asosiy belgi birlamchilik vazifasini o‘taydi. Bu holatlar, shubhasiz so‘zning ko‘p ma’noliligi bilan bog‘liq. Demak, ko‘p ma’noli so‘zlarda ularning ko‘chma ma’nolari bir – birlari bilan umumiy bir belgi tufayli bog‘langan bo‘ladi.

Резюме. Ushbu maqolada tilimizda so‘zlarning o‘rni va ularning ko‘p ma’nolarda qo‘llanilishi hamda qo‘llanish turlari, nutqimizda eng ko‘p tarqalgan ma’no ko‘chish usullari haqida ma’lumot berib o‘tilgan.

Rezume. This article provides information about the role of words in our language and their use in many senses, as well as the types of use, the most common methods of semantic transfer in our speech.

Резюме. В данной статье представлена информация о роли слов в нашем языке и их употреблении во многих смыслах, а также о видах употребления, наиболее распространенных способах смысловой передачи в нашей речи.